

## **Nizom** *(Drone racing)*

**Qatnashuvchilar yoshi:** chegaralanmagan;  
**Jamoa tarkibi -** 3 nafargacha a'zo.

### **VAZIFA TA'RIFI:**

Musobaqa “Dron-racing” maydonidan belgilangan marshrut bo‘ylab harakatlanish, marshrut davomida to‘siquidan o‘tish va marraga yetib borishga qaratilgan.

Amaliy musobaqada korxona va tashkilotlar, Oliy ta’lim, fan va innovatsialar vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institatlari, harbiy qism va muassasalar qatnashishi mumkin.

### **MAQSADLARI:**

1. Dron operatorlari mutaxassislik yo‘nalishidagi bilimlari va ko‘nikmalarini oshirish.
2. UUA texnologiyalarini rivojlantirish va amaliyotga ishlatishni o‘rganish.
3. Yangi ixtiolar va innovatsiyalarni ko‘rsatish.
4. UUA texnologiyalarini rivojlanishi va innovatsiyalarni oshirilishi.
5. Musobaqa davomida “Eng ilg‘or dron operatori” mutaxassisini aniqlash.

### **1. MUSOBAQANI O‘TISH TARTIBI:**

- 1.1 Musobaqa 3 bosqichda o‘tkaziladi: tayyorgarlik, tanlov va yakuniy.
- 1.2 Tayyorgarlik bosqichida har bir qatnashuvchi yo‘nalish bo‘yicha vaqtini inobatga olmagan holda parvozlarni amalga oshiradi. Parvoz davomida droni texnik imkoniyatlari va uchish barqarorligini aniqlanadi.
- 1.3 Tanlov bosqichda har bir qatnashuvchi 3 marta parvozni amalga oshiradi. Parvoz davomida olingan eng yuqori natijasi hisobga olinadi. Ushbu bosqichda musobaqa qatnashuvchi yo‘nalish bo‘yicha belgilangan talablarni buzmasdan qisqa vaqt ichida parvozni amalga oshirishi talab etiladi.
- 1.4 Yo‘nalish bo‘yicha to‘siquidan belgilangan tartibda o‘tgan, dronlarga shikast yetkazmasdan va eng kam vaqt ichida parvozni amalga oshirgan ishtirokchi yuqori natijaga ega bo‘ladi hamda keying bosqichga o‘tkaziladi.
- 1.5 Tanlov bosqichi natijalari bo‘yicha eng yuqori natijani ko‘rsatgan 5 ishtirokchi yakuniy bosqichga yo‘llanma oladi.
- 1.6 Yakuniy bosqichda har bir qatnashuvchi 3 marta parvozni amalga oshiradi. Parvoz davomida olingan eng yuqori natijasi hisobga olinadi. Ushbu

bosqichda musobaqa qatnashuvchi yo‘nalish bo‘yicha belgilangan talablarni buzmasdan qisqa vaqt ichida parvozni amalga oshirishi talab etiladi.

1.7 Yo‘nalish bo‘yicha to‘sinqlardan belgilangan tartibda o‘tgan, dronlarga shikast yetkazmasdan va eng kam vaqt ichida parvozni amalga oshirgan ishtirokchilar musobaqaning 1, 2 va 3 sovrinli o‘rinlarini egallaydi.

## **2. DRONGA QO‘YILADIGAN TEXNIK TALABLAR**

2.1 Dronlari videokamera va videouzatgich qurilmasi bilan jihozlangan bo‘lishi va ishtirokchi dronni video ko‘zoynagi orqali boshqarilishi kerak;

2.2 Agarda ishtirokchini o‘zining droni bilan ishtirok etishning iloji bo‘lmasa, unda tashkilotchi tomonidan dronlar taqdim etilishi mumkin.

### **MUSOBAQA SHARTLARI:**

Ushbu bellashuv har bir jamoadan 3 nafardan ishtirokchi qatnashishga ruxsat etiladi.

Ishtirokchilar belgilangan yo‘nalish bo‘yicha parvozni bittadan amalga oshiradi.

**Harakat davomida har bir qoida buzishlar jarima ballar qo‘llaniladi:**  
agarda dron yo‘nalishda chiqib ketsa 5 ball olib tashlanadi;  
to‘sqidan belgilangan shart bo‘yicha to‘liq o‘tmasa 5 ball olib tashlanadi;  
to‘siqqa tegib o‘tsa 3 ball olib tashlanadi;  
drondan halokatga uchraganda 5 ball olib tashlanadi va parvoz to‘xtatiladi.

### **G‘oliblar tashkiliy qo‘mita tomonidan quyidagi tartibda mukofotlanadi:**

- 1- o‘rin faxriy yorliq va pul mukofoti;
- 2- o‘rin faxriy yorliq va pul mukofoti;
- 3- o‘rin faxriy yorliq va pul mukofoti.

**Musobqa ishtirokchilarini baholash me'zoni**  
*(Drone racing)*

**Ishtirokchi:** \_\_\_\_\_

<b>№</b>	<b>To'siqlar nomlanishi</b>	<b>Ball</b>	<b>Natija</b>
1.	1-to'siq start. To'rtburchak shaklining ichidan uchib o'tish	10	
2.	2-to'siq. Tik turgan bayroqlar orasidan ilonsimon shaklda kesib o'tish	15	
3.	3-to'siq. Arkasimon shaklining ichidan uchib o'tish	10	
4.	4-to'siq. To'g'ri turburchak shaklidagi tunelning ichidan uchib o'tish	10	
5.	5-to'siq. Qo'sh aylana shaklidagi to'siq ichidan uchib o'tish	15	
6.	6-to'siq. Tik turgan bayroqlar orasidan ilonsimon shaklda kesib o'tish	15	
7.	7-to'siq. Qo'sh aylana shaklidagi to'siq ichidan uchib o'tish	15	
8.	8-to'siq finish. To'rtburchak shaklining ichidan uchib o'tish	10	
9.	Jarima ballari		
<b>Jami:</b>		<b>100</b>	